

Alisher Navoiy dahosi

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlangan "Alisher Navoiy dahosi" mavzusida ilmiy seminar o'tkazildi. Ilmiy seminarda ilmiy-tadqiqot muaassasalari ilmiy xodimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, respublikadagi soha mutaxassislari, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar ishtirok etdilar.



Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 19-oktyabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4865-sonli qarori e'lon qilindi. Qarorda alloma shaxsiyati, ijodiy merosining mavzu ko'lami, badiiyati, asarlari qo'lyozmalarining tarqalish geografiyasiga oid tadqiqot va ilmiy anjumanlarni tashkil qilish, asarlarida kuylangan mavzularning hozirgi zamon bilan bog'liqligi yuzasidan keng jamoatchilik, xususan, yoshlarga ma'lumot berish belgilab berilgan.

Mazkur qarorga muvofiq, ilmiy seminarda Alisher Navoiy asarlarining yaratilish tarixi, nodir qo'lyozmalari, asarlari badiiyati va zamondoshlari asarlaridagi e'tiroflari bilan bog'liq mavzularda ma'ruzalar qilindi.



Seminar nihoyasida tinglangan ma'ruzalar bo'yicha muhokama o'tkazilib, Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiy merosi bo'yicha bajarilishi kerak bo'lgan mavzular yuzasidan qator fikrlar bildirildi.